kazga qo‘yadi. Bu farq dialekt materialini adabiy tilga “mos” yoki “nomos” ekvivalentlar orqali qisqartirib izohlash amaliyotining cheklanganligini ko‘rsatadi. Jumladan, ayrim dialektizmlar adabiy tilda semantik jihatdan yaqin birlik bilan almashtirilganda nominativ ma’no saqlangandek ko‘rinsa-da, konseptual motivatsiya va baholovchi komponent yo‘qoladi, bu esa madaniy ma’no yo‘qotishiga olib keladi. Shu ma’noda, dialektizmning ekvivalentlilik turini (to‘liq, qisman, ekvivalentizatsiyalanmaydigan) parametr sifatida kiritish lingvokulturologik tavsifning zarur sharti bo‘lib chiqadi.

Natijalar xalqaro lingvokulturologik va etnolingvistik qarashlar bilan hamohangdir: til birliklarini madaniy bilimlar tizimi va identitet ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab talqin qilish yondashuvi konseptual tahlil hamda indeksikal ma’no nazariyalarida muhim o‘rin tutadi [5;6]. Biroq o‘zbek til materiali uchun muhim jihat shundaki, dialektlar o‘rtasidagi farqlanish ko‘pincha nafaqat “lokal obyektlar” bilan, balki umumturmush birliklarining turlicha konseptualizatsiyasi bilan ham izohlanadi; demak, lingvokulturologik tahlil “etnografik ekzotika”ni qidirish bilan cheklanmasligi, balki oddiy leksik qatlamda ham madaniy kodlarni aniqlashi kerak. Bu yondashuv o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha mavjud manbalarni qayta talqin etishga undaydi va dialektografik qaydlarda madaniy-metama’lumotni tizimli berish zaruratini kuchaytiradi [1;2]. Shu bilan birga, amaliyotga tatbiq nuqtayi nazaridan, dialektal birliklarni lug‘atlarda belgilashning yagona standartlari hali shakllanmaganligi sababli, taklif etilgan parametrlar majmuasi leksikografik normalashtirish uchun tayanch bo‘lishi mumkin [4].

Xulosa. Maqolada o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslari tizimlashtirildi va dialektizmni madaniy indeks sifatida talqin qiluvchi integrativ model taklif etildi. Dialektal birlikning nominativ, konseptual hamda ijtimoiy-pragmatik qatlamlardan tarkib topishi asoslab berildi va lingvokulturologik tavsif uchun minimal parametrlar majmuasi ishlab chiqildi. Ushbu parametrlar dialektizmning madaniy domeni, konseptual motivatsiyasi, qadriyat yo‘nalishi, diskursiv faolligi, avlodlararo barqarorligi hamda ekvivalentlilik turini izchil qayd etish imkonini beradi. Natijada dialekt materialini faqat hududiy farq sifatida emas, balki madaniy xotira va ijtimoiy tajriba kodlari sifatida qayta o‘qish zarurligi ko‘rsatildi. Taklif etilgan yondashuv o‘zbek dialektologiyasi, leksikografiya va ta’lim amaliyotida dialekt birliklarining madaniy ma’nolarini to‘liqroq aks ettirishga metodologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Polivanov E.D. O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan”, 1968. 214-bet.

(2). Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978, 256-bet.

(3). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati muammolari. Toshkent, “Fan”, 1983, 192-bet.

(4). Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002, 168-bet.

(5). Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. New York, Oxford University Press, 1992, 512 p.

(6). Silverstein M. Indexical order and the dialectics of sociolinguistic life. Language and Communication. Amsterdam, Elsevier, 2003, vol. 23, № 3–4, p. 193–229.

(7). Sa’dullayeva M.S. O‘zbek shevalarida polisemiya (o‘g‘uz lahjasi misolida). (f.f.f.d. PhD) dissertatsiyasi). Jizzax, 2025, 170-bet.

Turobova Nargiza Arolovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti; nargizaralovna@gmail.com)

ANTROPOTSENTRIK TILSHUNOSLIK DOIRASIDA BADIIY MATN PRAGMATIKASI: NAZARIYA VA TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan pragmalingvistika nuqtayi nazaridan badiiy matn tahlili yoritilgan. Xususan, yozuvchi Ulug‘bek Hamdam asarlari misolida qahramonlar nutqidagi yashirin ma’nolar, nutqiy aktlar, presuppozitsiya va implikaturalar tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy diskursning kommunikativ va ta’sirchanlik xususiyatlari, muallif intensiyasi hamda o‘quvchi persepsiyasi o‘rtasidagi munosabatlar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, pragmatik kontekst, imlikatura, muallif intensiyasi, nutqiy strategiya, presuppozitsiya, morfopragmatika*

ПРАГМАТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА В РАМКАХ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ: ТЕОРИЯ И АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье рассматривается анализ литературных текстов с точки зрения прагмалингвистики, одного из современных направлений лингвистики. В частности, на при-*

мере произведений писателя Улугбека Хамдама анализируются скрытые смыслы, речевые акты, пресуппозиции и импликатуры в речи персонажей. Также раскрываются коммуникативные и аффективные свойства литературного дискурса, взаимосвязь между авторским замыслом и восприятием читателя.

Ключевые слова: *дискурс, прагматический контекст, импликатура, авторский замысел, речевая стратегия, пресуппозиция, морфопрагматика.*

PRAGMATICS OF A LITERARY TEXT IN THE FRAMEWORK OF ANTHROPOCENTRIC LINGUISTICS: THEORY AND ANALYSIS

Annotation*. This article discusses the analysis of literary texts from the perspective of pragmalinguistics, one of the modern directions of linguistics. In particular, on the example of the works of the writer Ulughbek Khamdam, hidden meanings, speech acts, presuppositions and implicatures in the speech of the characters are analyzed. Also, the communicative and affective properties of literary discourse, the relationship between the author's intention and the reader's perception are revealed.*

Keywords*: discourse, pragmatic context, implicature, author's intention, speech strategy, presupposition, morphopragmatics*

Kirish. Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillaridan boshlab pragmalingvistika mustaqil yo'nalish sifatida shakllanib, rivojlana boshladi. Pragmatikaning semantika tarkibidan ajralib chiqishi til birliklarining nutqiy jarayondagi ta'sirchanligi va kommunikativ samaradorligini chuqurroq tadqiq etishga imkon yaratdi. Buning natijasida matn semantikasidan tashqari qo'shimcha ma'no qatlamlarini ham o'rganish uchun asos paydo bo'ldi. Natijada matnning kommunikativ jihatlarini tahlil qilish, tilning boy ifoda vositalari hamda keng tasvir imkoniyatlarini aks ettiruvchi badiiy matnlarni idrok etish jarayonida pragmalingvistik yondashuv muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Bugungi kunda dunyo tilshunosligida pragmalingvistika antropotsentrik yondashuvning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, keng rivojlanayotgan soha sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yo'nalishda muloqot jarayoni, uning nutqiy vaziyat hamda inson omili bilan uzviy bog'liqligi, shuningdek, nutqiy akt nazariyasiga doir masalalar chuqur tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, matn implikaturasi, presuppozitsiya, tagma'no va baho kategoriyalariga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon va o'zbek tilshunosligida pragmalingvistika masalalarini yoritishga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Yevropa tilshunosligida T.Van Deyk, J.Serl, J.Ostin, rus tilshunosligida esa N.Arutyunova hamda A.Maslova tomonidan pragmalingvistikaning nazariy masalalari yoritilgan. O'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, M.Hakimov, D.Lutfullayeva, M. Qurbonova, U.Rahimov, M.Umrzoqova, A.Pardayevning ilmiy izlanishlari ushbu sohaning taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy tilshunoslikda matnga shunchaki lisoniy birliklar yig'indisi emas, balki jonli muloqot jarayoni – diskurs sifatida yondashish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, badiiy diskurs tahlilida pragmalingvistik aspektning tatbiq etilishi matnning ichki qatlamlariga yashiringan muallif niyati (intensiyasi) va ushbu niyatning o'quvchi tomonidan idrok etilishi (persepstiyasi) o'rtasidagi bog'liqlikni yoritishga xizmat qiladi. Jahon tilshunosligida mazkur yo'nalishning nazariy poydevori J.Ostin va J.Serl tomonidan tadqiq etilgan nutqiy aktlar nazariyasiga borib taqaladi [2.1962]. Ularning qarashlariga ko'ra, badiiy matndagi har bir nutqiy birlik muayyan lisoniy harakat bo'lib, u nafaqat axborot beradi, balki o'quvchiga ta'sir ko'rsatish (illokutiv maqsad) vazifasini ham bajaradi. J.Serlning ilmiy izlanishlari bugungi kunda ham ifodaning semantik imkoniyati va pragmatik tuzilishi, nutqiy aktlar tasnifi borasida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda [8.1969]. Shuningdek, J.Lichning "Xushmuomalalik tamoyillari" va J. Yulning pragmatik kontekst haqidagi nazariyalari badiiy matndagi muallif va kitobxon munosabatlarini lisoniy hamkorlik tamoyillari asosida tahlil qilish imkonini beradi [13.1996]. Muloqot jarayonining pragmalingvistik xususiyatlari, asosiy pragmatik kategoriyalar, diskurs, nutqiy strategiya, badiiy kontekst, nutqiy akt tuzilishi bo'yicha T.Van Deykning izlanishlarida o'z aksini topgan. Olim "Язык. Познание. Коммуникация" ("Til. Bilim. Muloqot") asarida pragmatik kontekst va uning interpretatsiyasi, diskursning kognitiv va pragmatik tamoyillarini ilmiy tahlil qiladi [11.2000]. Uning o'z tadqiqotlari davomida matnda gaplar shunchaki axborot berish vazifasini bajarmaydi, balki nutqiy aktlar qahramonlarning muloqot jarayonida ma'lum bir intensiyani ifodalaydi degan fikrni ilgari suradi, matnning pragmatik xususiyatlari, nutqiy akt, presuppozitsiya masalariga jiddiy yondashadi [12.1978]. Rus tilshunosligida A.Maslova antropotsentrik paradigmaga xos yo'nalishlar: kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo aloqa, nutqiy ta'sir nazariyasiga oid ishlari bilan alohida o'ringa ega. Olima paradigmaning tilshunoslikning bugungi taraqqiyotidagi ahamiyati, nutqiy aktlar tuzilishi va tasnifi, bilvosita nutqiy akt, pragmalingvistik tahlilning o'ziga xos jihatlari, mu-

loqot turlari va tamoyillari, badiiy matnlardan olingan misollar bilan dalillaydi, pragmalingvistikaning tub mohiyatini va fanlar tizimidagi o'rnini asoslab beradi [5.2010].

O'zbek tilshunosligida pragmalingvistik tadqiqotlar antropotsentrik paradigmaning shakllanishi bilan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, olim Sh.Safarovning pragmalingvistik yondashuvlari badiiy matnni muloqot tizimi sifatida o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [9.2008]. Badiiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari uning yashirin ma'nolarini o'rganishda yetarlicha samara beradi. Ularni idrok etish, tushunish uchun lisoniy qobiliyat bilan birga, ongdagi umumiy bilimlar majmuyi ham birga harakatga keladi. N.Arutyunovaning qarashlariga ko'ra, ayrim hollarda nutqiy vaziyat bilan bo'g'liq hollarda ochiqchasiga gapirish noqulay vaziyatga olib kelishi mumkin [1.1985]. M.Hakimov implikatsiya tushunchasini ifodalar ekan "umumyashirin" terminini qo'llaydi va yashirin ma'nolarning barchasini qamrab olishini ta'kidlaydi [3.2013].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Pragmatik tahlil qahramonlar ruhiyati va muloqot jarayoni, til birlikning pragmatik imkoniyatlari, tasvirlanayotgan zamon va makon, voqelikka muallif munosabatining til vositalari orqali yuzaga chiqishi, ifodaga birlamchi va ikkilamchi ma'nolar, nutqiy qo'llanishlarning shaxs, nutqiy vaziyat, pragmatik kontekst kabi omillar bilan bog'liqligi masalalarni yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir nutqiy ifoda nima uchun, qanday maqsadda reallashganini aniqlash talab etiladi. Shunga muvofiq, badiiy matn pragmatikasi termini ostida muallif va asar qahramonlari nutqidagi turli xil vositalari yordamida ifoda etiladigan, o'quvchiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan va o'quvchi tomonidan bu til vositalarining keng talqin etilishiga mo'ljallangan muallif maqsadlarining jamlanmasi tushuniladi [6.1980]. "Sabo va Samandar" asaridan olingan ushbu parchani kontekst va vaziyat nuqtayi nazaridan tahlil qilsak: *Mundoq o'ylab qarasam, Bakir, Saboning o'z tengiga turmushga chiqayotgani to'g'riga o'xshaydi. Teng tengi bilan degan gap bor-ku. Axir, o'zing o'ylab ko'r, men unga o'zimdan boshqa nimani ham taklif qila olardim. Toshkentda na uyim bo'lsa, na serdaromad ishim... Uning qanday sharoitda yashashini yaxshi bilasan-ku! Faqat she'r yozish bilan oilani boqib bo'lmasa kerak-a, Bakir o'zing ayt!..* (Ulug'bek Hamdam). Mazkur parchada *"Teng tengi bilan"* iborasi pragmatik jihatdan kontekstda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga chiqaradi, ya'ni Saboning ijtimoiy mavqeyi Samandarnikidan balandroq ekani anglashiladi. Ibora matn diskursida baholash aktini ifodalaydi, yashirin ma'no esa *"Men unga munosib emasman"* mazmunida namoyon bo'ladi. U o'zining moddiy yetishmovchiligini Saboning ketishiga asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Bunda Samandar o'z aybini ijtimoiy sharoitga yuklaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Badiiy matnda tasvirlangan qahramonlar va ularning nutqiy muloqoti, o'zaro munosabatlarning lisoniy ifodasi, ijtimoiy munosabati, ruhiy jihatlarning nutq tuzilmasiga ta'siri masalalari diskursiv tahlilda alohida o'ringa ega bo'ladi. Birgina shaxsning nutqiy holati fe'l, kayfiyat, ijtimoiy mavqe kabi ko'rinishlardan iborat bo'lib, ularning har biri lisoniy birliklar, xususan, grammatik shakllarning nutqiy voqealanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ulug'bek Hamdam nasrida qahramonlar nutqi ortiga yashiringan implikatura va muallifning maxsus niyatlari (intensiyalari) mavjud bo'ladi. Ba'zan qahramonlar muloqotida nutqiy strategiyalar qo'llaniladi. *Namuncha o'zingizni qiynamasangiz? Arziydimi* ***o'sha qiz... o'sha ayol... o'sha...*** *Sabo deganingiz sizning bir kun chekkan azobingizga, a, arziydimi?..–Farhod kelasolib Samandarning qo'lidagi kattakon belkurakni olib naryoqqa uloqtirdi. – Qanaqa odamsiz o'zi?! Joningiz savilmi?* (Ulug'bek Hamdam). Kontekstdagi Samandar, ya'ni "qaysar oshiq" obraziga Farhod nutqidagi ***"Arziydimi o'sha qiz... o'sha ayol... o'sha... Sabo deganingiz"*** jumlasi achinish nutqiy aktini yuzaga chiqarmoqda. Yuklamalar yordamchi so'z turkumlari orasida pragmatik imkoniyatining kengligi bilan alohida o'ringa ega. Bu yuklamalarning mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no berishi va presuppozitsiya ifodalashi bilan bog'liq. Yuklamalar adresantning gap yoki uning biror bo'lagi anglatayotgan ma'noga qo'shimcha munosabatni bildiradi – modal ma'no ifodalovchi sifatida maxsuslashadi [10.1996]. Aynan shu xususiyati bilan yuklamalar morfopragmatik vosita hisoblanadi. Oddiygina bitta bog'lovchi yoki yuklama matnning ifodaviy maqsadini, adresant adresatga yetkazishini ko'zlovchi ma'lumotni batamom o'zgartirishi mumkin [7.2013]. *Taraddud ila Samandarga qarab turgan Farhod hafsalasi pir bo'lganidan jahllangancha o'z joyiga yo'naldi, uzoqlab borarkan, o'zini tutolmay yana qichqirdi:* ***"Kim u? Osmondagi oymi? Farishta – malakmi? Kim u o'zi?.."*** (Ulug'bek Hamdam). Farhodning Samandarga aytgan gapidagi qo'llanilgan yuklama vositasida savol nutqiy akti ifodalangan. Presuppozitsiyon implitsitlik esa *"Sabo oddiy odam"* ma'nosida anglashiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Badiiy matnni pragmalingvistik yondashuv asosida tahlil qilish uning chuqur semantik ma'nolarini ochishga imkon beradi. Ulug'bek Hamdam asarlarida muloqot ishtirokchilarining nutqi nafaqat axborot yetkazish, balki o'quvchiga ta'sir ko'rsatish, muayyan hissiy va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Nutqiy aktlar, presuppozit-

siya va implikaturalar orqali yashirin ma'nolar yuzaga chiqadi. Qolaversa, yuklamalar va boshqa morfop-ragmatik vositalar muallif niyatini nozik ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. Лингвистическая прагматика. М., "Прогресс", 1985, вып. 16, с. 23–39.

(2). Austin J.L. How to do Things with Words. Oxford, Oxford University Press, 1962, 166 p.

(3). Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. T., "Akademnashr", 2013, 176-bet.

(4). Leech G. Principles of pragmatics. London, New York, 1983, 251–253 p.

(5). Маслова А. Введение в прагмалингвистику. Москва, "Флинта", 2010, с. 40.

(6). Почепцов Г. Прагматика текста. Калинин, 1980, с. 7, 25.

(7). Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимидаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. Тошкент, "Фан", 2013, 129-бет.

(8). Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, 202–204 p.

(9). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 286-bet.

(10). Турдибоев Т. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филол. фан. номз. дис., Тошкент, 1996, 53-бет.

(11). Ван Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. Москва, БКМ им. И.А.Бодуэн де Куртенэ, 2000, 309 с.

(12). Ван Дейк. Т. Вопросы прагматики текста. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. Москва, "Прогресс", 1978, с. 258–335.

(13). Yule G. Pragmatics. Oxford University Press, 1996, 138–140 p.

Eskalieva Shiyrin Asenbay qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;
E-mail: shirineskalieva@gmail.com)

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ISH YURITISHGA OID QO'SHMA TERMINLARNING YUZAGA KELISH TIPLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola o'zbek va ingliz tillarida ish yuritishga oid qo'shma terminlarning yuzaga kelish tiplarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda terminlarning sintaktik usulda hosil bo'lish jarayoni, ularning struktura modellari va semantik xususiyatlari o'rganiladi. Birikma tarzidagi terminlar muayyan yangi tushunchani ifodalab, ularni tashkil etuvchi qismlarning abstraktlik xususiyati zaiflashishi va ma'no aniqlik tomon siljishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, umumiy ma'noni ifodalovchi terminlar birikma shaklida qo'llanganda, u ifodalaydigan tushuncha ma'no jihatdan torayishi kabi jihatlari yoritib berildi.*

Kalit so'zlar: *termin, o'zbek tili, ingliz tili, ish yuritish, sintaktik aloqa, birikma termin, ma'no torayishi, predtermin.*

Ескалиева Ширин Асенбаевна (Нукусский государственный педагогический институт)

ТИПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СОСТАВНЫХ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ДЕЛОПРОИЗВОДСТВОМ, В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Данная статья посвящена сравнительному анализу типов образования сложных делопроизводственных терминов в узбекском и английском языках. В ней изучается процесс синтаксического образования терминов, их структурные модели и семантические особенности. Термины в виде сочетаний выражают определенное новое понятие и характеризуются ослаблением абстрактности составляющих их частей и сдвигом значения в сторону точности. Также были освещены такие аспекты, как смысловое сужение понятия, которое оно выражает, когда термины, выражающие общее значение, используются в форме сочетания.*

Ключевые слова: *термин, узбекский язык, английский язык, делопроизводство, синтаксическая связь, составной термин, сужение значения, предтермин.*

Eskalieva Shiyrin Asenbaevna (Nukus state pedagigacal institute)

TYPES OF COMPOSITE TERMS RELATED TO CASE PROCEEDINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation. *This article is dedicated to the comparative analysis of the types of formation of complex administrative terms in the Uzbek and English languages. It examines the process of syntactic formation of terms, their structural patterns, and semantic features. Terms in the form of compounds express a certain new concept and are characterized by the weakening of the abstractness of their constituent parts and the*